**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

Rektor ______________ Sh. Sirojiddinov

2025-yil 28 -avgust

**PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI**

**SIYOSIY VA XALQARO MUNOSABATLAR SOTSIOLOGIYASI**
**fanining**

# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo’nalishi** | 60311000 – sotsiologiya |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi<br>SXMB 306 | | Fan/modul turi<br>majburiy | | | Ta'lim tili<br>o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2025/2026 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | Semestr | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | Laboratoriya | | |
| Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi | 6 | 6 | 6 | 90 | 44 | 46 | - | - | 90 | 180 |
| Jami: | | | | 90 | | | | | 90 | 180 |

**Fan maqsadi (FM)**

Fanni o'qitishning maqsadi – jamiyat siyosiy hayotida shaxs va turli sotsial guruhlarning o'rni va siyosiy jarayonlarga munosabati qonuniyatlarini, siyosiy hodisa va o'zgarishlarning sotsial oqibatlarini anglatish bo'yicha bilim va ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1. | Umumiy sotsiologiya (UMSB118) |
| 2. | Sotsiologiya tarixi (STAB112) |
| 3. | Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi (JAFT106) |
| 4. | Oliy matematika (OMTB104) |

**Ta'lim natijalari (TN)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Davlat siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish, boshqarish va isloh etish yo'nalishlari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- Siyosiy va xalqaro munosabatlar fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriya va qonunlari, shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni, sotsial guruhlar tasnifi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqesi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olish haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni xolis qiyosiy taqqoslash, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni obyektiv tahlil qilish, muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarda ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda o'tkazilgan amaliy natijalaridan foydalana olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR



"Fan bo'yicha talablarnineg bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar qo'yiladi.

**Talaba:**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

**Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi** mustaqil fan sifatida shakllanishi omillari, uning tadqiqot obyekti va predmeti, strukturasi va fanlar tizimidagi o'rni, jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari, jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtiradigan sotsial institutlar faoliyati haqida tasavvurga ega bo'lishi;

**Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi** fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriyalari va qonunlari, shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni, sotsial guruhlar tasnifi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqesi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

Xalqaro doirada turli ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-huquqiy va madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni holis qiyosiy taqqoslash, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni obyektiv tahlil qilish, muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarda ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- muammoli ma'ruzalar;
- interaktiv amaliy ishlar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, blits so'rov);
- kichik guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar yaratish;
- mualliflik loyihalari;
- hamkorlik va himoya qilish loyihalari.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan **«Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi»** fanidan **(6)** semestr uchun **180 soat** *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 6- semestr uchun jami **6** kredit ajratilgan.

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida»gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**«Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi»** faniga 3 bosqich kunduzgi bakalavr ta'lim yo'nalishlarida **6** semestr ushun **44** soat ma'ruza, 46 seminar va **90** soat mustaqil ta'limga ta'lim ajratilgan. Talabalar yakuniy nazorati **balli konvertasiyasi** asosida hamda mustaqil ta'lim

topshiriqlarini bajarish uchun ballik shkala tizim asosida yakuniy nazorat bahosiga qo'shib baholanadilar

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho** - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**4 (yaxshi) baho** - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**3 (qoniqarli) baho** - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**2 (qoniqarsiz) baho** - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda baholar bilan baholanadi.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat: *birinchi oraliq*** nazoratigacha o'tilgan mavzular asosida ***yozma*** shaklda o'tkaziladi. ***Ikkinchi oraliq*** nazorat ishida talaba semestr davomida o'zlashtirganligi inobatga olinib, talaba tomonidan o'tilgan mavzular yuzasidan taqdimot tayyorlaydi va umumlashtirilib baholanadi.

***Namunaviy savollar:***

1.Siyosiy g'oyalar va siyosiy jarayonlar evolyutsiyasi.
2.Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati
3. Siyosiy konfliktlar va ularning turlari

Shundan: agarda talaba 3 ta savolga javob bersa 5 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, agar 2 ta svolga javob bersa 4 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, 1 ta savolga javob bergan talabaga 3 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi. Agarda talaba 1 ta ham savolga to'g'ri javob bermagan bo'lsa, unda talaba oraliq nazorat ishini topshira olmagan hisoblanadi. Talaba qayta oraliq nazorat ishini 2 marotabagacha topshirishi mumkin.

**2-oraliq** nazorat ishi o'quv semestri davomida seminar mashg'ulotlarda to'plagan baholari va mustaqil ish topshiriqlarining umumlashtirgan holda baholanadi. Mustaqil ish mavzusi har bir talabaga 1 ta beriladi, vazifalarni talabalar taqdimot (slayd) shaklida himoya qiladi, yoki o'qituvchi talabaga topshirgan vazifaga qarab referat, esse shakllarda ham topshirishi mumkin. Vazifalarning bajarilganligiga qarab, talabaning nutq madaniyati kreativ fikrlashiga va qo'yilgan topshiriqqa mustaqil yondoshuviga qarab ***5 bahogacha*** baholanadi. Shundan: ikkinchi oraliq nazorat ishi uchun talaba o'quv mashg'ulotlar davomida berib borilgan barcha mavzular bo'yicha topshiriqlarni mashg'ulotlar daftarida aks ettirlganligi va qo'shimcha og'zaki savollar asosida baholanadi.

**Yakuniy nazorat: 6** semestr uchun yakuniy nazorat ishi o'quv fani doirasida o'tilgan mavzular bo'yicha ***yozma*** shaklida o'tkaziladi.

***Namunaviy savollar:***

1.Xalqaro munosabatlar subyektlari: insonlar va tashkilotlar.
2.Xalqaro munosabatlar: nazariyalar, konsepsiyalar va qarashlar
3.Siyosiy guruhlar va siyosiy tashkilotlar

**Yakuniy nazorat mezoni:** Yakuniy nazorat *Yozma* ish shaklida o'tkaziladi, talabaga 3 ta savoldan iborat variant beriladi. Talaba 3 ta savolga ijodiy yondashib to'liq javob yozgan talaba 5 (ball konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi. 2 ta savolga javob yozgan talaba 4 (ball konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi, 2 ta savolga qoniqarli javob yozgan talaba 3 (ball konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi. Agarda talaba berilgan savol variantdagi savollarga javob yozolmasa u fanga tegishli kreditga ega bo'la olmaydi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI
## 6-SEMESTR



### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | S\h |
|---|---|---|---|
| 1 | Siyosiy sotsiologiya fan sifatida | Siyosat tushunchasi, uning sotsial mohiyati. Siyosiy aloqalar, munosabatlar, ularda inson omili. Siyosiy sotsiologiya va siyosatshunoslik (politologiya) fanlari: tutash jihatlari, xususiyatlari va o'zaro farqlari. | 2 |
| 2 | Siyosiy g'oyalar va siyosiy jarayonlar evolyutsiyasi | Siyosiy g'oya va mafkuralar, siyosat to'g'risidagi nazariyalarning genezisi, siyosiy rivojlanishning klassik bosqichlari, siyosiy sotsiologiya rivojlanishini zamonaviy bosqichlari.Siyosatning zamonaviy muammolari. | 2 |
| 3 | Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi va siyosiy xulq-atvor | Shaxs siyosiy xulq-atvori tushunchasi va ko'rinishlari, shaxs siyosiy ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar, siyosiy xulq-atvorning madaniyat bilan o'zaro bog'liqligi, zamonaviy jamiyatlarda siyosiy ijtimoiylashuv. | 2 |
| 4 | Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati | Siyosiy jarayon mohiyati. Siyosiy jarayon tushunchasi. "Ijtimoiy jarayon" va "siyosiy jarayon" tushunchalarining o'zaro farqi. Siyosiy jarayon rejimlari. | 2 |
| 5 | Siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik | Siyosiy madaniyat siyosiy jarayon mexanizmlarining refleksiyasi sifatida. Ochiq va yopiq turdagi jamiyatlarda siyosiy madaniyat. | 2 |
| 6 | Siyosiy konfliktlar va ularning turlari | Jamiyatdagi siyosiy nizo. Siyosiy nizo shakllari: stratifikatsion, madaniy, etnik, davlatlararo, diniy va boshqalar. | 2 |
| 7 | Siyosiy tizim va siyosiy dinamika | Siyosiy tizim tushunchasi. Siyosiy tizim tuzilmasi. Siyosiy tizim funksiyalari. | 2 |
| 8 | Siyosiy rejim tushunchasi. Siyosiy rejim turlari | Siyosiy rejim turlari: totalitar, avtoritar, demokratik va boshqalar. | 2 |
| 9 | Siyosiy texnologiyalar va ularning sotsial mohiyati va oqibatlari | Ijtimoiy-siyosiy texnologiyalar va ularning ahamiyati, siyosiy texnologiyalarning subyektlari, siyosiy faoliyatda qo'llaniladigan texnologiyalar, OAV ning jamoatchilik fikriga tasir o'tkazish texnologiyalari. | 4 |
| 10 | Siyosiy guruhlar va siyosiy tashkilotlar | Ijtimoiy sharoitning mohiyati. Ijtimoiy sharoitda guruhlararo munosabatlar. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi tushunchasi va mezonlari. | 4 |
| 11 | Xalqaro munosabatlar: nazariyalar, konsepsiyalar va qarashlar | Fuqarolik jamiyati shakllanishini asoslari. Ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar. Siyosiy partiyalar va ularning siyosiy faoliyat mezonlari. | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12 | Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi | Xalqaro munosabatlar tushunchasi. Xalqaro munosabatlarni turkumlash. Diplomatik munosabatlar tarixi. Davlat tashqi siyosati tushunchasi, yo'nalishlari, maqsad va vazifalari. Tizimlar nazariyasi: L.Bertalanfi. | 4 |
| 13 | Xalqaro huquq normalari va ularning xalqaro munosabatlarni optimallashtirishdagi o'rni | Xalqaro munosabatlar tushunchasining sotsial mohiyati, turlari va yo'nalishlari. Zamonaviy global muammolarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari. | 4 |
| 14 | Xalqaro munosabatlar subyektlari: insonlardan tashkilotlarga. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari | Xalqaro munosabatlarga tizimli yondashuv yo'nalishlari. | 4 |
| 15 | Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar: dinamika, murakkabliklar va istiqbol | Xalqaro munosabatlar tushunchasining sotsial mohiyati, turlari va yo'nalishlari. Zamonaviy global muammolarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari. | 4 |
| | | **Jami:** | **44** |

**2. Seminar mashg'ulotlar**

| № | Seminar mavzulari | S\h |
|---|---|---|
| 1 | Siyosiy sotsiologiya fan sifatida | 2 |
| 2 | Siyosiy g'oyalar va siyosiy jarayonlar evolyutsiyasi | 2 |
| 3 | Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi va siyosiy xulq-atvor | 2 |
| 4 | Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati | 2 |
| 5 | Siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik | 2 |
| 6 | Siyosiy konfliktlar va ularning turlari | 2 |
| 7 | Siyosiy tizim va siyosiy dinamika | 2 |
| 8 | Siyosiy rejim tushunchasi. Siyosiy rejim turlari | 4 |
| 9 | Siyosiy texnologiyalar va ularning sotsial mohiyati va oqibatlari | 4 |
| 10 | Siyosiy guruhlar va siyosiy tashkilotlar | 4 |
| 11 | Xalqaro munosabatlar: nazariyalar, konsepsiyalar va qarashlar | 4 |
| 12 | Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi | 4 |
| 13 | Xalqaro huquq normalari va ularning xalqaro munosabatlarni optimallashtirishdagi o'rni | 4 |
| 14 | Xalqaro munosabatlar subyektlari: insonlardan tashkilotlarga. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari | 4 |
| 15 | Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar: dinamika, murakkabliklar va istiqbol | 4 |
| | **Jami:** | **46** |

**3. Mustaqil ta'lim ishlari**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish.
2. Berilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi rahbarligida ilmiy-ijodiy ishlanmalar tayyorlash.
3. Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish.
4. Berilgan mavuzlar bo'yicha kurs ishini bajarish.
5. taqdimot, referat, esse yoki maqola chop etish.

| | Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar | S\h |
|---|---|---|
| M1 | Siyosiy jarayonlar sotsiolog nuqtai nazaridan: tahlil va talqin (Xorijiy davlatlar misolida). | 4 |
| M2 | Siyosiy g'oyalar va siyosiy jarayonlar evolyutsiyasi. | 4 |
| M3 | Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati. | 4 |
| M4 | Siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik. | 4 |
| M5 | Siyosiy konfliktlar va ularning turlari | 4 |
| M6 | Siyosiy tizim va siyosiy dinamika. | 4 |
| M7 | Siyosiy texnologiyalar va ularning sotsial mohiyati va oqibatlari. | 4 |
| M8 | Siyosiy guruhlar va siyosiy tashkilotlar | 4 |
| M9 | Fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-siyosiy asoslari. | 4 |
| M10 | Xalqaro munosabatlar: nazariyalar, konsepsiyalar va qarashlar. | 4 |
| M11 | Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi. | 4 |
| M12 | Xalqaro huquq normalari va ularning xalqaro munosabatlarni optimallashtirishdagi o'rni. | 4 |
| M13 | Xalqaro munosabatlar subyektlari: insonlardan tashkilotlarga. | 4 |
| M14 | Xalqaro munosabatlar subyektlari: insonlardan tashkilotlarga. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari | 4 |
| M15 | Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar: dinamika, murakkabliklar va istiqbol. | 4 |
| M16 | Tashqi siyosat diplomatiyasi | 2 |
| M17 | Siyosiy rivojlanishning klassik bosqichlari | 2 |
| M18 | Davlat tashqi siyosati tushunchasi, yo'nalishlari, maqsad va vazifalari. | 2 |
| M19 | Jamiyatning ijtimoiy strukturasi tushunchasi va mezonlari. | 2 |
| M20 | Zamonaviy taraqqiyot sharoitida xalqaro munosabatlarni demokratlashtirishning ahamiyati | 2 |
| M21 | Global muammolarni ijtimoiy-siyosiy jihatdan bartaraf etish yo'llari. | 2 |
| M22 | Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari | 2 |
| M23 | Xalqaro huquq normativlari | 2 |
| M24 | "Ijtimoiy jarayon" va "siyosiy jarayon" tushunchalarining o'zaro farqi. | 2 |
| M25 | Siyosiy jarayon rejimlari. | 2 |
| M26 | Ochiq va yopiq turdagi jamiyatlarda siyosiy madaniyat. | 2 |
| M27 | Xalqaro tashkilotlarda O'zbekistonning o'rni | 2 |
| M28 | Xalqaro munosabatlarga tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari | 2 |
| M29 | Siyosiy madaniyat siyosiy jarayon mexanizmlarining refleksiyasi sifatida. | 2 |
| M30 | Siyosatning zamonaviy muammolari. | 2 |
| | **Jami :** | **90** |



## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi. : "GRAND KONDOR PRINT", 2025.
2. Гидденс Энтони. Социология: Олий ук^в юртлари учун укув кулланма / Тарж. Н. Маматов ва Ж. Бегматов.— Т.: Шарк,, 2002.— 848 б.


**Qo'shimcha adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir [matn]: Toshkent: TASVIR nashriyot uyi, 2021. – 36 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Asambliyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma [matn]:- T.: "Ma'naviyat", 2021.-280 b.
7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
8. Глобализация. Учебник. / под.Ред. Михайлова В.А., Буянова В.С. – М: РАГС, 2008. – 543 с.
9. Кравченко С.А. Становление сложного общества: к обоснованию гуманистической теории сложности. – М., 2012. -320 с.
10. Политическая социология: Учебник для вузов /Под Ред.ЧЛ.-корр. РАН Ж.Т. Тотшенко.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. -495 с.
11. Робертс Дж. М., Уестад О.А. Мировая история / Пер. с англ. С.А. Белоусова. – М.: Тсентрполиграф, 2018. – 1247 с.
12. Современний социум: характер и направление развития / Э.М. Бабосов, Ч.С. Кирвел, О.А. Романов. Минск: Издателство «Четире четверти», 2013. – 728 с.
13. Штомпка П. Социология. Анализ современного общества: Пер. с полск. С.М. Червонной. – М.: Логос, 2005. – 664 с.
14. Баженов А.М. Социология международных отношений: учебник / А.М. Баженов. — М. : ЦСПиМ, 2023. – 300 с.


**Axborot manbalari:**

https://lex.uz/uz/

https://ziyonet.uz/

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | **Utamurodov A.** ___________<br>Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi, katta o'qituvchi<br>**Ibragimov J.** _______________ (imzo)<br>Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi, o'qituvchi |
| **E-mail:** | |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi |
| **Taqrizchilar:** | **N.Razzakova** – «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).<br>**Xusanova X.T.** – O'zMU «Sotsiologiya» kafedrasi dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (DSc) |

| |
|---|
| Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. |
| Mazkur Sillabus « Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasining 2025-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan. |



**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** **V.Nazarov**

**Kafedra mudiri** **I.Aslonov**

**Tuzuvchi** **A.Utamuradov**
**J.Ibragimov**

**ARM mudiri** **Z.Jumayeva**